

BOLA TARBIYASIDA KUZATILADIGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Zuxirdinova Dildora Xamidulli qizi

Andijon viloyat Andijon tumani 41-maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi tarbiya, oilada ota-onada va bola o'rtasidagi munosabatlardan hamda muammolar va ularni hal qilish yo'llari to'g'risida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Oila, ota-onada va bola munosabatlari, me'yordi, tabiya, kelajak.

KIRISH

Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma`naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogic jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo`lgan hissiyotlarga ega bo`lishini ta`minlash yo`lida ko`rildigan choratadbirlar yig`indisi. Tarbiya jarayoni - o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo`naltirilgan hamkorlik jarayoni.

Demakki, insonning shaxs bo`lib rivojlanishi, uning odatlari, xulqi qay darajada bo`lishi, dunyoqarashi, ongi his-tuyg`ularini shakllantirish tarbiya jarayonida hosil bo`ladi. Shaxsning jamiyatdagi o`rnini topishi, his-tuyg`u, kechinmalarini yo`nalishi, o`sishi tarbiyaga bog`liq.

O`z-o`zini tarbiyalash shaxsni o`zida ijtimoiy qadrga ega bo`lgan fazilatlarni hosil qilish, takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarini bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat. Inson hayotidagi har xil illat va nojo`ya holatlar tarbiyadagi xato tufayli kelib chiqadi.

Bolalikdan tarbiya to`g`ri yo`naltirilsa bunday "og`ishlar" bo`lmaydi. Jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi talablarga javob beruvchi shaxsni shakllantirish

tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Talablar bilan birga boshqa insonlarni hurmat qilish o`zgalar fikrini tinglash, insonparvarlik va ilm olish, ilmga intilish tarbiyaning muhim tamoyillaridandir. Yana insonda e`tiqod, hayotga nisbatan qarashlar, o`zini-o`zi anglashi, keng fikr yuritishi o`zini va boshqalarni fikri, g`oyalari, qarashlarini baholashi ham tarbiyaning muhim unsurlaridan biridir.

Jamoa bilan ishslash, boshqalarga nisbatan hurmat hissini oshirish, insonda hamkorlik tuyg`usini shakllantirish ham tarbiya asosida vujudga keladi. Bizning olam, borliqqa nisbatan qarashlarimiz paydo bo`layotgan g`oyalarimiz negizida ham aynan shu tarbiya tamoyillari yotadi.

Tarbiya pedagogikaning ham asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Pedagogikada tarbiya ikki ma`noda farqlanadi: keng ma`nodagi tarbiya va tor ma`nodagi tarbiya. Keng ma`noda tarbiya- shaxsga jamiyatning ta`sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Ya`ni, shaxsning jamiyat talablariga javob berishiga va jamiyatning ta`siri natijasida shaxsni rivojlantirishga yo`naltirilgan tarbiya.

Tor ma`nodagi tarbiya- pedagogik jarayon sharoitida ta`lim maqsadini amalgalash uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarining maxsus tashkil etilgan faoliyati hisoblanadi. Bunda, tarbiya ma`lum bir ta`limni o`rganish maqsadida tashkil etiladi va pedagog va o`quvchining faoliyat jarayoni tushuniladi.

Bundan bilinadiki, jamiyat uchun komil, ilmli, yetuk, barkamol insonni shakllantirishdan iboratdir tarbiyaning maqsadi. Shaxsni kamol toptirishdagi asosiy tushuncha ham bu tarbiyadir.

Shaxsni jamiyat talabidan kelib chiqib shakllantirishni tarbiya desak, tarbiya ham sohasiga ko`ra turlarga bo`linadi. Aqliy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya. Ta`lim muassasasidagi yo`nalishlarga asosan ekologik, iqtisodiy, huquqiy, fuqarolik, siyosiy, axloqiy tarbiyaga bo`linadi.

Mamlakatimizda yoshlarning ma`naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakillantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Eng quvonarlisi shundaki, davlatimiz rahbari yoshlarning ma`naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e'tibor berib kelmoqdalar. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi – mustaqil siyosat,

iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivoji ta'minlansagina O'zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o'z munosib o'mini egallay oladi.

Oila - oziga xos ijtimioy birlik. Uning asosida er-xotin ittifoqi, qarindoshlik munosabatlari, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy ma'suliyat hamda eng asosiysi ota-onalarning bolalarini tarbiyalash majburiyatlari turadi.

Oila deganda ko'z oldimizga birinchi navbatda ota-onada va bolalar keladi. Oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shu bilan birga oilada yurtning kelajagi ya'ni barkamol farzandlar o'sib ulg'ayadi, kamolga yetadi. Biz oilani bir bog' deb tasavvur qiladigan bo'lsak oiladagi farzandlar – mevali daraxt, ota-onalar esa bog'bonlardir. Mana shu bog ichidagi mevali daraxtlar doim bog'bonga muhtoj. Farzand ham xuddi shunday, ota-onada parvarishiga, ota-onada ko'magiga muhtoj. Bog'bon qachonki mevali daraxtini o'z vaqtida parvarishlasa undan mo'l hosil oladi. Ota-onada ham qachonki farzandini to'g'ri tarbiyalasa, keljakda u ham albatta o'z mevasini beradi. Agar aksincha bo'lsa-chi ? Oilada ota-onada farzandga e'tibor bermasa, farzandi u uchun ahamiyatga ega bo'lmasa, xuddi bog'dagi mevali daraxt meva bermaganidek, ota-onada bag'ridagi farzand ham o'z yutuqlarini bermaydi.

Keling, endi ota-onada va bola munosabatlari, ularning tarbiyalari to'g'risida gaplashsak. Aslida tabiatdagi barcha jonzot bolasi uchun jon kuydiradi. Odamzod esa nasli davomchisi bo'lgan dilbandi uchun ulardanda ziyod qayg'uradi. Chunki ota-onada farzandi ulg'ayib, el-yurt koriga yaraydigan, yaxshi joyda ishlab, farovon hayot kechiradigan, hurmatga sazovor inson bo'lishini xoxlaydi. Bu ezgu orzular amalga oshishi uchun albatta ota-onada farzandiga to'g'ri tarbiya berolishi kerak. To'g'ri tarbiya berish uchun ham ota-onada qaysidir ma'noda ota-lik va onalik roliga tayyor bo'lishi lozim. Chunki bola dunyoga kelgan payti hamma narsani bilib tug'ilmaydi. U xuddi "top-toza qog'oz". Bu qog'ozga sekin-asta ota-onada bergan tarbiya, muhit tarbiyasi va hayot qonuniyatlari yozilib borilaveradi. Qachonki ota-onada farzandini avaylab, e'zozlab katta qilsa u shunchalik mehroqibatli bo'ladi. [2]

Agar oilada farzandga to'g'ri tarbiya berilmasa, farzand bilan to'g'ri munosabat qilinmasa, u bola keljakda barkamol shaxs bo'lib kamolga yetolmaydi.

Ota-onalarning qanchalik e'tiborsiz bo'lsa bola ruhan eziladi, o'zini baxtli va kerakli inson deb his qilmaydi. Hayotda har bir bola baxtli yashashga haqli. Chunki ular dunyodagi eng begunoh insonlardir. Shu o'rinda psixolog olim V.I.Selivanov fikrlarini keltirib o'tsak - "baxtli bolalik bu oiladagi quvonchni, hamjihatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir". Biz bilamizki, inson xató qilish xususiyatiga ega. Oilada ota-onalarning farzand tarbiyasida bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yadi. Quyida ota-onalarning farzand tarbiyasida bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yadigan xatolarni keltirib o'tsak.

Bola tug'ilganidan boshlab ota-onasining bag'rida voyaga yetadi. Bola ulg'aygan sari taqlid qilishni, ota-onasining harakatlarini bajarishni boshlaydi. Ya'ni bola ko'radi, bola qaytaradi. Oilada ota-ona nima harakat qilsa bola o'shani bajaradi. Agar oilada ota-ona bir-birini hurmat qilsa, to'g'riso'z, xushmuomala, mehribon bo'lsa, bola ham xuddi shunday bo'ladi. Aksincha, oilada o'zaro humatsizlik, turli xil kelishmovchiliklar, ziddiyatlar bo'lsa, bu bolaga ta'sir qiladi. U ham ulg'ayganda turli xil zo'ravonliklarni amalga oshirishi mumkin. Agar bunday oilada ota-ona farzandiga to'g'ri yo'lda yurishni maslahat bersa, bu hol ularning o'zida mavjudligini aytib, ota-onasining gapiga quloq solmasligi mumkin. Unutmang farzandingiz maslahatlaringizdan ko'ra amallaringizni ko'proq bajaradi. Shuning uchun oilada farzandingizga o'rnak bo'lish uchun avvalo o'zingiz tarbiyalangan bo'lishingiz kerak. Farzand tarbiyasida ota-ona yo'l qo'yadigan eng katta xatolardan biri bubolani urish. Oilada bolaga turli xil tazyiqlar o'tkazilsa, ular ham atrofdagilarga tazyiq, ziyon yetkazishi mumkin. Bunday hollarda bolalar muammoni kuch bilan hal qilish mumkin degan fikrda bo'ladi. Ular turli xil tazyiqlar orasida o'sganligi sababli, ulg'ayib o'z oilasini qurganda ham xuddi shunday zo'ravonliklarni amalga oshiradi. Bu kabi xatoliklar avloddan-avlodga o'tib borsa, butun bir kelajak yovuzlik to'riga tushib qoladi. Shu sababli butun jamiyat aziyat chekmasligi uchun oilada turli xil munosabatlarni, muammolarni murosa yo'li bilan hal qiling. Shu bilan birga farzandiningiz oldida boshqalar bilan urish qilmang, boshqa insonlar to'g'risida yomonlab gapirmang. U bu kabi holatlarni ko'rsa dunyoda yomon odamlar ko'p ekan degan xulosaga kelib qoladi.

Farzand tarbiyasida barcha narsa o'z me'yorida bo'lishi kerak. Bolani haddan tashqari qo'rqtish, haddan ziyod erkalash ham kerak emas. Tarbiya jarayonida bolaning o'z fikrlarini ham inobatga olish kerak. Turli xil muammolarga duch kelganda uning fikrini to'liq eshita olish lozim. Unga muammoning tayyor yechimini o'zingiz bermasligingiz kerak. Agar muammolarni o'zingiz hal qilsangiz, u bunga o'rganib qoladi. O'z muammolarini o'zi hal qilishga urinmaydi, o'zining shaxsiy fikriga ham ega bo'lmaydi. Agar farzandingiz mustaqil inson bo'lishini xoxlasangiz va barkamol inson bo'lib ulg'ayishini istasangiz, o'z xatolaringiz ustida ishlang. Axir farzandingiz sizning xatolaringiz evaziga badal to'lashi kerak emas.

Aziz ota-onalar farzandingizdan mehringiz va vaqtingizni qizg'onmang. Ularning tarbiyasiga e'tiborli bo'ling. Zero farzandingiz tarbiyasidagi bugungi munosabat, keljakda oyoqlarinigizda kuch qolmaganda seziladi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Toshkent, «Adolat», 1998, 46-bet 2. Yo'ldoshev J.G'. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma)-T.:2000.54-bet
3. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие.М.: Гардарики,2005. - 320 с.
4. Uzoqov H, G'oziyev E, Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T: O'qituvchi 1992. 128 b.
5. Xo'jayev N. Tarbiya nazariyasi. – T.: 2003. 75-bet.